2/22 – sonli SHARTNOMA

Toshkent shahri "20" 01/01/6 **2022 yil**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi majmui loyihalarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha **"O'zsuvekspertiza" DUK,** (keyingi o'rinlarda **«Bajaruvchi»** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor M.A.Razakov bir tomondan va **"Qashqadaryo suv qurilish invest" DM** (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi»** deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktor **A.Sharipov,** ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar", quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

SHARTNOMA PREDMETI

1.1.Mazkur shartnomaga muvofiq, **Buyurtmachining** topshirig'i bo'yicha: **Chiroqchi tumanidagi "Eskianxor-Sandal" kanali "Oydin ko'l" sel tashlama inshoatini rekonstruksiya qilish" I.L.** joriy narxlarda loyiha smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish majburiyatini oladi. **Buyurtmachi,** o'z navbatida ekspertizadan o'tkazish ishlari uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ekspertizadan o'tkazishga **Buyurtmachining** 05.01.2022 yildagi 01/5-sonli murojaati asos hisoblanadi.

1.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlarining yakuniy natijasi ekspert xulosasi hisoblanadi.

1.4. **Bajaruvchi** mustaqil ravishda hamda uchinchi shaxslarni jalb etish bilan Buyurtmachi manfaatlarini ko'zlab ishlarni bajaradi.

2. ISHLARNING NARXLARI VA TO'LOV TARTIBI

2.1. Ushbu shartnomaga muvofiq loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun **BUYURTMACHI BAJARUVCHI**ga belgilangan tartibda ishlarning qiymatini QQSsiz 2147726 (ikki million bir yuz qirq etti ming etti yuz yigirma olti) so'mini to'laydi.

2.2. **Bajaruvchi** ekspertiza summasining 30 % miqdorida bo'nak to'lovini olgandan keyin buyurtmani bajarishga kirishadi va ishni 45 kundan ortiq bo'lmagan muddatda bajarish majburiyatini oladi.

Ekspertiza uchun hujjatlarni qabul qilingan sanasi _____

2.3. Ekspertizadan o'tkazish ishlari bajarilib, o'zaro to'liq hisob-kitob qilingandan so'ng, **Bajaruvchi** aybdor bo'lmagan taqdirda mazkur shartnoma predmeti bo'yicha takroran ekspertizaga taqdim etilsa, takroriy ekspertizadan o'tkazish uchun xaq to'lash yangi shartnoma tuzish orqali amalga oshiriladi.

2.4. Loyihalarni ekspertizadan o'tkazish uchun narxlar indeksatsiya qilinganda, ushbu shartnoma bo'yicha ishlarning qiymati qayta hisob-kitob qilinishi kerak.

2.5. Agar kerak bo'lsa, **Bajaruvchi** loyihada qabul qilingan texnik echimlarni ushbu alohida holatda ularning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini joyiga tashrif buyurgan holda o'rganishni tashkil qiladi va bevosita ishtirok etadi.

3. ISHLARNI TAQDIM QILISH TARTIBI

3.1. **Bajaruvchi**, ekspertiza tugagandan so'ng, jamlangan xulosani tuzadi va **BUYURTMACHI** hamda, loyihalash tashkilotiga yuboradi.

3.2. Suv xo'jaligi vazirligida loyihalarni tasdiqlashda **Bajaruvchi** tasdiqlash uchun zarur materiallarni tayyorlaydi va loyihani ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

4. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun **Bajaruvchi BUYURTMACHIGA** kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan majburiyatlar hajmidan

0,5% miqdorida, lekin bajarilmagan majburiyatlar hajmining 50% dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

4.3. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun **BUYURTMACHI Bajaruvchi**ga kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilmagan majburiyatlar summasining 0,4 % miqdorida, lekin bajarilmagan majburiyatlar hajmining 50 % dan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima to'laydi.

5. FORS-MAJOR

5.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar bu tabiat hodisalari va boshqa fors-major holatlarining natijasi bo'lsa va bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa.

5.2. Agar tomonlar uch oy ichida kelishuvga erisha olmasalar, tomonlarning har biri shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidir.

6. BOSHQA SHARTLAR

6.1. Buyurtmachi va **Bajaruvchi** loyiha tashkiloti bilan birgalikda ekspertiza davomida aniqlangan izoh va tavsiyalarni zudlik bilan bartaraf etish uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rish majburiyatini oladi.

6.2. Ushbu shartnomaga barcha qo'shimchalar va o'zgartirishlar tomonlarning roziligi bilan yozma ravishda kiritilishi kerak.

6.3. Tomonlarning ushbu shartnomada ko'rsatilmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

6.4. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuziladi, har bir tomonda bir nusxadan saqlanadi va bir xil yuridik kuchga ega.

Bitim O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatga olinganidan keyin kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

7. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

Bajaruvchi: 100128, Toshkent sh., Labzak k, 1a. "Turonbank" Toshkent sh, Bosh ofisi, 2021 0000 9001 5395 2001-sonli hisob-kitob raqami, MFO-00446, STIR- 200 935 784, OKED-71120, tel./faks: (71) 241-08-24.

BUYURTMACHI : Qarshi sh, Chapqirg'oq k, 1-uy. tel. 75-226-12-40, 75-226-18-09. Sh/r №_____, INN- 200 667 350, OKONX- 69000, Moliya vazirligi G'aznachiligi, RKS GU SB Toshkent sh, H/r №2340 2000 3001 0000 1010, MFO- 00014, INN- 201 122 919.

Bajaruvchi	**BUYURTMACHI**
M.A.Razakov	**A.Sharipov**

loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish

XISOBI

1. Ekspertizani o'tkazish qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 6-ilovasiga muvofiq belgilanadi.

Ekspertiza qiymati:

Qurilishning smeta qiymati = 2 147 726 487 so'm QQS siz

Eq = 2 147 726 487 : 100 x 0,1 = 2 147 726 so'm QQS siz

"O'zsuvekspertiza" DUK direktori **M.Razakov**